

INTERFAOL TA'LIM METODLARI ASOSIDA DIDAKTIK JARAYONNI LOYIHALASH TEXNOLOGIYASI

Javliyeva Shaxnoza Bahodirovna, Davronova Ozoda Nodirbekovna

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Samarqand, O'zbekiston
E-mail: gafasov87@gmail.com

Annotatsiya. mazkur maqlolada zamonaviy ta'lism sharoitida dars jarayonini didaktik talablar asosida loyihalashning zarurati, dolzarbliji, mazmuni, mohiyati, usullari va shakllari, darslarni olib borishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish yo'llari, yangi interfaol uslublardan foydalanishning ijobjiy ahamiyati yoritib berilgan. Shuningdek, interfaol metodlardan namunalar tavsiya qilinib yoritib berilgan. Mamlakatimizda hozirgi vaqtida jahon ta'lism maydoniga kirishga yo'naltirilgan yangi ta'lism tizimi qaror topdi. Bu jarayon bilan bir vaqtida pedagogik o'quv-tarbiya jarayonining nazariyasi va amaliyotida sezilarli o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Ta'lism mazmuniga alohida e'tibor qaratilib, Davlat ta'lism standarti o'quv dasturlarining yangi tahrirdagi variantlari tajriba sinovdan o'tkazilmoxda, pedagogik texnologiyalar asosida o'quv jarayonining samaradorligi oshirish maqsadida pedagogik texnologiyalardan, axborot komminikatsiya vositalaridan foydalanilmoqda.

Kalit so'zlar: *ta'lism-tarbiya, an'anaviy dars noan'anaviy dars, interfaol ta'lism, interfaol metod, modernizatsiya, ilg'or texnologiyalar, ta'lism sifati.*

DIDACTIC PROCESS DESIGN TECHNOLOGY BASED ON INTERACTIVE LEARNING TECHNIQUES

Javliyeva Shaxnoza Bahodirovna, Davronova Ozoda Nodirbekovna

Samarkand State University named after Sharaf Rashidov, Samarkand, Uzbekistan
E-mail: gafasov87@gmail.com

Abstract. this article highlights the need, relevance, content, essence, methods and forms of designing the course process on the basis of didactic requirements in modern educational conditions, ways of using pedagogical technologies when conducting classes, the positive importance of using new interactive methods. Samples from interactive techniques are also recommended and highlighted. At the moment in our country, a new educational system has been decided, which is aimed at entering the world educational space. At the same time as this process, significant changes are taking place in the theory and practice of the pedagogical educational process. Special attention is paid to the content of education, the options of the state educational standard curricula in the new edition are tested experimentally, pedagogical technologies, information communication tools are used in order to increase the effectiveness of the educational process on the basis of pedagogical technologies.

Keywords: *education and training, traditional lesson non-traditional lesson, interactive education, interactive method, modernization, advanced technologies, quality of Education.*

Mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan kelib chiqqan holda, kadrlar tayyorlash mazmunini takomillashtirish, xalqaro standartlar darajasiga mos oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash ta'limga texnologik yondashuvni talab etadi. Bunda bevosa ta'lism jarayonini, oliy ta'limgning o'quv reja va dasturlarini yangi pedagogik texnologiyalar va o'qitish usullarini keng joriy etish, ilmiy-ta'lism jarayonini sifat jihatidan yangilash va zamonaviy tashkiliy shakllarni joriy etish muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limgi tizimli isloh qilishning ustuvor yo'naliishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limgi modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lism texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-soni "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lism tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi. Bu

esa o'z navbatida pedagog kasbining yanada murakkablashuvi, mas'uliyati va vazifalarining ortishiga olib keladi. Chunki ommaviy ta'limning bugungi sharoitida yangi raqamli avlod bilan ishslash, ularni rivojlantirish, jahon talablariga mos qilib kasbga tayyorlash zamonaviy o'qituvchidan yuksak texnologik bilim, salohiyat va mehnatni talab qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Yana bir muammoni hal etish o'ta muhim hisoblanadi: bu pedagoglar va professor-o'qituvchilar tarkibining professional darajasi, ularning maxsus bilimlaridir. Bu borada ta'lim olish, ma'naviy-ma'rifiy kamolot masalalari va haqiqiy qadriyatlarini shakllantirish jarayonlariga faol ko'mak beradigan muhitni yaratish zarur", – degan fikrlari katta ahamiyat kasb etadi. [1].

Bugungi ilmiy-texnik taraqqiyot jadallahuvi va shiddatli axborot oqimi davrida XX asrning ikkinchi yarmida paydo bo'lgan "Ta'lim texnologik yondashuv" tushunchasi ta'lim jarayonini sifatlari tashkil etish muammoosi hal etadi. Ommaviy ta'lim sharoitida ta'limni texnologiyalari - har bir bosqichi va har bir elementi jiddiy ishlab chiqilgan, asoslangan, loyihalashtirilgan, kafolatlanuvchi sifatlari yakuniy natijaga mo'lljallangan pedagogik jarayonni tuzish va amalga oshirish imkoniyatini beradi. Ta'limning yangi modelini amaliyotga tatbiq etish o'quv jarayonini texnologiyalashtirish bilan bog'liq. Shuning uchun ham Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida "O'quv-tarbiyaviy jarayonni ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash" uning asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilangan. [4]

Ta'lim taraqqiyotini harakatlantiruvchi kuch – bu o'zida didaktik masalalar va ta'lim texnologiyalarini mujassamlashtirgan pedagogik tizim hisoblanadi. Ta'lim texnologiyasining muvaffaqiyatli loyihalanishi va yakuniy natijaning kafolatlanishi o'qituvchining didaktik masalalar mohiyatini anglab yetish darajasiga, ularni to'g'ri belgilash, tanlash va samarali qo'llay olishga bog'liqdir. Barchaga ma'lumki, zamonaviy ta'lim o'quvchilar uchun informativ, qiziqarli va maroqli bo'lsa, kutilayotgan o'qitish maqsadlariga erishish mumkin. Ta'lim oluvchilarni faqatgina davr talabiga javob bera oladigan faol o'qitish usullari, shakllari, vositalarini qo'llash, innovatsion yondashuv va hamkorlik orqali motivlashtirish mumkin. Shu sababli ham, ilg'or pedagog olimlar, novator professor-o'qituvchilar va amaliyotchilar ilmiy asoslangan ta'lim texnologiyalarini o'z faoliyatlarida keng qo'llashga intilmoqdalar.

Bizga ma'lumki, ko'p yillar davomida an'anaviy dars o'tish ta'limning asosiy shakllaridan biri bo'lib keldi. An'anaviy darsda o'qituvchi faol, o'quvchi esa passiv ishtirokchiga aylanadi. Bu esa o'quvchining mustaqil fikrashi, izlanuvchanlik qobiliyati rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari shiddat bilan rivojlanayotgan bir paytda bunday darslar yaxshi samara bermaydi. Bugungi davr talabi dars jarayonini noan'anaviy tarzda mazmunli tashkil etish, o'quvchilarning qiziqishini orttirib, ularning o'quv jarayonidagi faolligini ta'minlashni taqozo etadi.

Noan'anaviy darslarni tashkil etishda interfaol metodlar muhim bo'g'in hisoblanadi. Ular o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro faol munosabatlarida tashkil etiladigan mashg'ulot turidir. Bunda o'qituvchi va o'quvchi o'zaro hamkorlikda ishlaydi. Fikrlar to'qnashuvi yuzaga keladi. O'quvchining erkin fikrlash jarayoni yangi pog'onaga ko'tariladi. O'qituvchi shu tarzda o'quvchilarni faollashtiradi, o'zlashtirishi past o'quvchilar dunyoqarashi va tafakkurini boyitib boradi.

Hozirgi kunda interfaol metodlarning yuzdan ortiq turi mavjud bo'lib, ularning aksariyati tajriba-sinovdan o'tib, yaxshi natija bergen. Keng qo'llaniladigan usullar – "Klaster", "Aqliy hujum", "Davom ettir", "Taqdimot", "Blits-so'rov", "Muammoli vaziyat" kabilardan foydalanib, darsda samarali natijalarga erishish mumkin. Darsning o'tilgan mavzuni so'rash qismida "Sinkveyn", "Teskari test", "Aql charxi" metodlarini, yangi mavzuni tushuntirish qismida "Insert", "Pinbord", "Zinama-zina", "Bumerang" texnologiyalarini, mavzuni mustahkamlash qismida "Venn diagrammasi", "Baliq skeleti", "Nima uchun?", "Qanday?", "Konseptual jadval", "Nilufar guli" kabi grafik tashkil etuvchilar hamda "Tushunchalar tahlili", "T-jadval", "Rezyume", "Kungaboqr", "Charxpalak" metodlarini, uyga vazifa berishda "FSMU", "Klaster", "BBXB" metodlarini qo'llash dars samaradorligini ta'minlab, o'quvchilarning bilimini oshirishga yordam beradi.

Qo'yida bir necha interfaol metodlarni ta'lim jarayonida qo'llanish texnologiyasini ko'rsatib utamiz: "Tanlash ixtiyoriy, bajarish majburiy" usulini. Bunda o'quvchilar darslikdagi mashqning shartida keltirilgan topshiriqlarni o'zi ixtiyoriy ravishda badiiy asar, boshqa darsliklardagi matn, materiallar asosida bajarishlari kerak. Natijada o'quvchilarda mustaqil o'qib o'rganish, o'zining qiziqish va qobiliyatlarini namoyon qila olish ko'nikmalar shakllanadi. "Imkoniyat usuli"da chorak yakunida o'zlashtirishi yuqori bo'lgan o'quvchilarga

o'r ganilgan mavzular bo'yicha javobi tanlanadigan va javobi yoziladigan testlar tuzib kelish topshiriladi. Bu vazifani a'llo darajada bajargan o'quvchilar yakuniy nazorat ishlarini topshirishdan ozod qilinadi. Test tuzgan o'quvchilarda test yechgan o'quvchiga nisbatan quyidagi ko'nikmalar shakllanadi: - o'z fikrini yozma tarzda izchil, aniq, tushunarli bayon qila olish;

- mavzudan kelib chiqib savollarga javob berish va o'zi ham savollarni mantiqan to'g'ri qo'ya olish;
- axborotlarni izlab topish, saralash, tanlash va tahlil qila olish;
- bilimini mustaqil ravishda oshirib boorish va uni amaliyotda qo'llay olish kabilar.

Xulosa o'rnida shularni ta'kidlashmiz lozimki, yuqorida keltirilgan interfaol metodlarni darslarda qo'llash natijasida o'quvchilarning fanga bo'lган qiziqishlarini oshirishga, o'zlarining fikrini erkin bayon eta olishga, atrofidagilarning fikrlarini hurmat qilishga, o'zining nuqtayi nazarini himoya qila olish qobiliyatlarini rivojlantirishga erishish mumkin.

Foydalaniman adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni.
2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqididy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent, 2017. – 45 b.
3. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risidagi" qonuni. 2020 yil 23-sentabr.
4. O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. – Toshkent: "Sharq", 1997.
5. Muxamedov O., Usmanboev M., Rustamov S. Ta'limni tashkil etishda interfaol metodlar: O'quv-uslubiy tavsiyalar – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2016.

